

YUSUF XOS HOJIBNING KOMIL INSON TUSHUNCHASI: XUSUSIYATLAR, TO'SIQLAR VA O'GITLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15654648>

Saidbek Boltabayev

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Karabuk universiteti dotsenti

saidbekboltabayev@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5200-5845

Qisqacha mazmun. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida komil inson tushunchasi qanday talqin etilgani tahlil qilinadi. Asarda komil inson – aql, bilim, adolat, sabr, rostgo‘ylik va ezgulik kabi fazilatlar bilan bezangan shaxs sifatida tasvirlanadi. Komil inson nafaqat o‘zining, balki jamiyatning ham farovonligini ta‘minlashga intilishi kerak. Shuningdek, maqolada komil inson bo‘lish yo‘lida uchraydigan to‘siqlar ham ko‘rib chiqiladi. Bu to‘siqlarga jaholat, g‘azab va kibr, ochko‘zlik va hirs, yolg‘on va ikkiyuzlamachilik, dunyoviy istaklarga berilish kabi illatlar kiradi. Yusuf Xos Hojib bu illatlarni insonning komillikka yetishish yo‘lidagi eng katta g‘ovlar sifatida ko‘rsatadi va ularni yengish uchun bilim olish, sabr qilish, adolatga rioya qilish, qanoatli bo‘lish va chiroyli so‘z aytish kabi o‘gitlarni beradi. Maqolada, shuningdek, “Qutadg‘u bilig”da komil inson bo‘lish yo‘lida berilgan o‘gitlar ham tahlil qilinadi. Bu o‘gitlar insonning hayotiy maqsadlariga erishishi, shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatga yetishi uchun muhim yo‘l-yo‘riqlar sifatida taqdim etiladi. Ushbu maqola “Qutadg‘u bilig”ni nafaqat siyosiy va ijtimoiy asar sifatida, balki har bir shaxs uchun axloqiy qo‘llanma sifatida ko‘rib chiqishga urg‘u beradi.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, komil inson, axloq

Abstract

This article analyzes how the concept of a perfect human is interpreted in Yusuf Has Hajib's work “Qutadgu Bilig”. In the work, the perfect human is described as equipped with qualities such as intelligence, knowledge, justice, patience, truthfulness, and goodness. A perfect person should strive to look out not only for his own good but also for the good of society. The article also examines the obstacles to becoming a perfect human. The most important of these obstacles are bad habits such as ignorance, anger and arrogance, greed and ambition, lying and hypocrisy, and indulgence in worldly pleasures. Yusuf Has Hajib states that these bad habits are the greatest obstacles to a person reaching perfection and gives advice on how to overcome them; such as learning knowledge, being patient, observing justice, being content, and speaking beautifully. The article also analyzes the teachings on becoming a perfect human in “Qutadgu Bilig”. These teachings are presented as important guides for the person to achieve his/her life

goals and to achieve personal and social success. This article emphasizes that “*Qutadgu Bilig*” should be considered not only as a political and social work but also as a moral guide for every individual.

Keywords: Yusuf Has Hajib, *Qutadgu Bilig*, perfect human, ethics

Kirish

Har bir jamiyat o‘z ideallarini, qadriyatlarini aks ettiradigan namunali shaxslarni yetishtirishni xohlaydi. Bunday namunali shaxs modelini “komil inson” yoki “ideal inson” kabi tushunchalar bilan ifodalash mumkin. Asosiy axloqiy qadriyatlar umumbashariy bo‘lsa-da, ular har asrda turli madaniyatlarda turli talqin va amaliyotlarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli, xatti-harakatlar, xulq-atvorlarning o‘zgarishiga qaramay, o‘zgarmas qadriyatlar mavjud. Shu jihatdan har bir axloq tushunchasi muqarrar ravishda insoniy tushunchaga ega. Inson o‘z qadriyatlari bilan inson bo‘ladi va mana shu tushunchalar odob-axloqimizning asosini tashkil qiladi [1: 12].

Tilimizda yozilgan manbalar va qo‘shni qavmlarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra qadimgi davrlardanoq turkiy xalqlarning tafakkuri insonni yer yuzidagi eng oliy mavjudot deb biladi va uni o‘zi, tashqi dunyo va ko‘rinmas olam bilan bog‘lay oladigan tushunchaga asoslaydi. Har kimga yetuk, komil inson bo‘lib yetishish yo‘li ochiq tutilgan bu tafakkur tarzida shaxsning o‘z borliq tuzilishiga mos ravishda o‘zini-o‘zi anglashi integratsiya va ijtimoiylashuv jarayonlari bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, ona tuproq va urf-odatlarini tushunish doirasida haqiqiy baxtni boshdan kechiradigan inson profili chiziladi [2: 134].

Turkiy xalqlarning islom dinini qabul qilganidan keyingi qarashlarida yetuk inson tushunchasi tabiiy ravishda bir muncha o‘zgarishlarga uchradi. Shu bois komil inson ta’limotini to‘liq anglash, avvalo, so‘fiylik va uning islom tafakkuridagi o‘rnini to‘liq anglash va albatta, bu ta’limotning tizimli bayoni bo‘lgan vahdati vujud ta’limotiga bog‘liqdir. Chunki butun tarixiy jarayon davomida tasavvuf madaniy hayotimiz ko‘rsatkichlari sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha elementlarda o‘z ta’sirini his ettiradi [3: 107].

Yusuf Xos Hojib va komil inson tushunchasi

Insoniyat, qolaversa turkiy xalqlar tarixida shunday tanlangan odamlar bordirki, insoniyatga hissa qo‘shish va ularga ta’sir qilish orqali atrof-muhitni o‘zgartirish baxtiga erisha oladilar. Bu mo‘tabar insonlar o‘zlari yashayotgan dunyoni, atrof-muhitni, bu dunyo va muhitda rivojlanayotgan voqea va vaziyatlarni oddiy odamdan yuqori nuqtadan ko‘ra oladi, idrok qiladi va baholay oladi. Ular o‘z davri, yurti, millati, tili va madaniyati uchun mas’uliyat hissi bilan harakat qiladilar. Ular atrofidagi odamlarni boshqaradi, ularga rahbarlik qilib to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Ularning ta’siri nafaqat ular yashayotgan davrni, balki ulardan keyingi davrlarni ham qamrab oladi. Bu jihatlari bilan ular ma’naviy o‘lmas siymolardir. Ular o‘z asarlari va fikrlari bilan yashashda davom etaveradilar.

Yusuf Xos Hojib ham biz yuqorida umumiy bayon qilishga harakat qilgan xususiyatlar doirasidagi asari bilan bugungi kungacha yashab kelayotgan mustasno

shaxsdir. Fanda arab tili, adabiyotda fors tili keng qabul qilingan bir davrda turkiy tilning imkoniyatlarini, zamondoshi Mahmud Koshg'ariy madh etgan boyliklarini amaliyotda ko'rsatib bera olgan.

Yusuf Xos Hojibga ko'ra dunyoda inson har qancha urinmasin, barkamol bo'la olmaydi, lekin komillikka intiladi va komilik sari yo'l topa oladi. Mehmet Akgun "Qutadg'u bilig"ga ko'ra yetuk inson bo'lishning 11 sharti ko'rsatib o'tilgan. Birinchi sharti aqlli va bilimli bo'lishdir; ikkinchi shart, Allohning borligiga ishonish va Uning roziligini qozonish uchun ibodat qilishdir. Yetuk inson bo'lishning uchinchi sharti – ezgulik, to'rtinchi sharti – bag'rikeng, sabrli, muloyim va og'ir-bosiq bo'lishdir. Beshinchi shart kamtar bo'lish, oltinchisi qanoatkor bo'lishdir. Yetuklik uchun yettinchi shart – nafsining quli bo'lmaslik, sakkizinchi sharti halol pul topib, halol rizq yeyish, haromga yaqinlashmaslik va haromdan doimo uzoqlashishdir. Yetuk shaxs bo'lishning to'qqizinchi sharti – sadoqat va mehr-oqibat tuyg'ularini rivojlantirish va kamolga yetkazish bo'lsa, o'ninchi sharti – o'z shaxsiy manfaatlarini yengish hamda fidoyilik tuyg'usini rivojlantirish va kamolga yetkazishdir. Yetuk inson bo'lishning o'n birinchi va ehtimol, eng muhim sharti – ibo-hayo egasi bo'lishdir [4: 7-9].

Asardagi insoniylik va kamolot masalasini Forobiy bilan qiyosiy o'rgangan Eliphanov asar qahramonlarini bu nuqtai nazardan quyidagicha izohlaydi: Dostonning yarmi tasavvuf tafakkuri asosida tasvirlangan. Bu tasodifiy hodisa emas. Chunki tasavvufiy tafakkurda inson kamoloti muhim o'rin tutadi. Usulda faqat ba'zi farqlar mavjud. O'dg'urmishning adolati, fasohati va cheksiz yaxshiligi faqat o'zi bilan chegaralangan. Kunto'g'di va O'gdulmish obrazlari Forobiy keltirgan komil inson darajasida namoyon bo'lsa, O'dg'urmish bandalikning kamolotidir. Ikkalasining ham mohiyati bir, har ikkisi ham komil insonga erishishni maqsad qilgan [5: 148].

Turk olimi Funda Toprak Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviyning komil inson haqidagi umumiy qarashlarini tadqiq etadi va quyidagi umumiy xususiyatlarni keltiradi:

- Allohga to'la ishonish va muhabbat
- Allohdan qo'rqish
- Allohning ne'matlari uchun shukr qilish
- Qur'oni Karimni hidoyat qilib olish
- Payg'ambar va ahli baytga muhabbat
- Alloh insonni tanlab, mukammal qilib yaratganiga ishonish
- Aql, idrok va bilimga ega bo'lish
- So'zda va ishda to'g'ri bo'lish, yolg'onchi bo'lmaslik
- Shafqatsizlik, hasad, takabburlik kabi yomon xulqqa ega bo'lmaslik
- Dunyoning vaqtinchaligini bilish va undan yuz o'girish, oxirat uchun harakat qilish
- Halol va haromni bilish, halol rizq topish va haromdan uzoqlashish
- Tavba qilish va ibodatlarini to'liq bajarish
- Johillardan uzoq turish [6: 101-118].

Funda Toprak Yusuf Xos Hojibning komil inson konseptini batafsil asardan olingan misollar bilan ko'rsatadi. Biz esa ushbu ma'ruzada Yusuf Xos Hojibning komil inson haqidagi tushunchasini xususiyatlar, to'siqlar va o'gitlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qildik. Aslida bu masalada asardan ko'p sonli misollar olib, keng tadqiqot qilish mumkin bo'lsa-da, ma'ruza chegarasini hisobga olgan holda asosiy nuqtalarga to'xtalib o'tamiz.

“Qutadgu bilig”da komil inson masalasi asarning asosiy falsafasini tashkil etuvchi bosh mavzulardan biridir. Yusuf Xos Hojib ideal shaxsni belgilashda oxirat va dunyoviy fazilatlarni birlashtirib, bu inson qanday bo'lishi kerakligini batafsil tushuntirib beradi. Komil inson - bilim, aql, adolat, fazilat, e'tiqod va rostgo'ylik kabi qadriyatlar bilan bezalgan shaxsdir. Bu inson o'zining ham, jamiyat farovonligini ham ta'minlashga intiladi. Yusuf Xos Hojib “Qutadgu bilig” asarida komil inson haqida nafaqat uning shaxsiy fazilatlari, balki uning jamiyatdagi o'rni, davlat boshqaruvi bilan aloqasi, oxiratga bo'lgan qarashlari nuqtai nazaridan ham so'z yuritadi. Asarda komil inson erishishi kerak bo'lgan xususiyatlar, bu yo'lda duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar va bu to'siqlarni yengib o'tish uchun berilgan o'gitlar aniq ko'rsatilgan.

“Qutadgu bilig”ga ko'ra komil inson avvalo aqlli, bilimli, adolatli, qanoatli, odobli, sabrli va kamtar bo'lishi kerak. Bu xususiyatlar davlat boshqaruvida va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat va baxt olib keladi.

Asardan olingan misollar Namangan nusxasining faksimil nashridan olindi [7].

a) aql va bilim

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi eng katta ne'mat bu aqlidir. Aql insonga to'g'ri noto'g'ridan ajratish imkonini beradi va aql bilim bilan birlashsa, insonni yuksaltiradi. “Aql va ilm insonlarga dunyo va oxirat saodatiga erishish imkonini beradi”. Komil inson bilim va aqlga ega bo'lishi kerak. Bilim insonni yuksaltiruvchi eng muhim fazilatdir.

*Uquşun aǵar ol biligin
bedür,*

*Bu iki bilä er aǵırlıq
körür (17b)*

Inson aql bilan yuksalur, bilim bilan
katayur.

Bu ikkisi bilangina inson hurmat-e'tibor
ko'rur.

Yusuf Xos Hojib nodonni zulmatdagi odamga o'xshatib, ilm insonni ziyoli qilishini ta'kidlaydi. Aqlsiz odam o'z hayotini to'g'ri yo'naltira olmaydi va xatoga yo'l qo'yadi. Yusuf Xos Hojib inson uchun boylikdan ko'ra bilim qimmatli ekanini ta'kidlaydi: “Bilim kimyoga o'xshaydi, uni kim tutsa, qadrlı bo'ladi” deydi.

*Bilig kimyā teg ol neng
irklü turur*

*Uquş ordusı ol neng üglü
turur (18a)*

Bilim, kimyo kabi, molni
ko'paytiruvchidir. Aql uning xazinasi,
boylikni to'plovchisidir.

b) adolat va to'g'rilik

Komil inson odil va solih bo'lishi kerak. Adolat ham shaxsiy, ham ijtimoiy hayotda muvozanatni saqlash uchun zarur. Kuntug'di qahramoni adolat vakili

bo'lib, adolatni qanday amalga oshirish kerakligi haqida o'gitlar beradi. Nafaqat hukmdor, balki shaxs ham jamiyatda adolatli va to'g'ri bo'lishi kerak. Adolat quyoshga o'xshaydi, u hammaga birdek nur sochadi. Shu bois ham hukmdorning sifati adolatdir. Adolatli inson bu dunyoda huzur-xalovat topadi, oxiratda esa mukofotlanadi.

*Ikkinchi tug'ar kün yarur bu
ajun
Tözü xalqqa tegrür yoqalmaz
özün (35b)*

Ikkinchisi quyosh chiqadi va dunyo yoriydi. Nuri butun xalqqa tegadi, o'zi yo'qolmaydi.

Rostlik - bu insonning ichi va tashining bir bo'lishi. Komil inson - bu o'z so'zida turuvchi, halol va ishonchli kishi.

*Bag'irsaq bolun barça
boḏnung üzä
Törü qıl uluḡqa kiçigkä tüzä
(188a)*

Ikkinchisi quyosh chiqadi va dunyo yoriydi. Nuri butun xalqqa tegadi, o'zi yo'qolmaydi.

d) qanoat va sabr

Qanoat egasi bo'lish insonga dunyo havaslariga berilmasdan baxtli hayot kechirish imkonini beradi. Inson qancha boylik va mol-mulk topmasin, qanoat qilmas ekan, baxt topa olmaydi.

*Tükäl bay bolayin tesä
belgölüg
Baringa tapı bol kötürdünḡ
ülüg (154b)*

Agar tugal boy bo'lishni istasang, boriga qanoat qil, shunda o'z ulushingga ega bo'lasan.

Sabr esa hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi qalqon vazifasini o'taydi. Sabr-toqatli odam qiyin paytlarda o'zini xotirjam tutib muvaffaqiyatga erishadi. Sabr kishini ko'kka ko'taruvchi muhim xususiyatdir:

*Seringil serinmāk erän qılqı
ol
Serinsä bulur er mäsäl kökkä
yol (54b)*

Sabr er kishilarning xususiyatidir, sabr qil, sabrli odam ko'kka ham yo'l topa oladi.

e) fazilatli va axloqli bo'lish

Yaxshi xulq-atvor insonni jamiyatda hurmatli mavqega olib keladi. Saxovat, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi fazilatlar inson xarakterini mustahkamlaydi. Faqatgina yaxshi insonlar buning kabi fazilat va axloq egasi bo'la oladilar.

*Aqiliq kişilik asığ edgülük
Bu edgü kişidin kelir
belgölüg (40a)*

Insoniylik, saxovat, foyda, ezgulik yaxshi insonlardan kelishi aniq.

f) dunyoviy istaklar tuzog'iga tushmay o'limga tayyor yashash

Asarning juda ko'p qismida o'lim haq ekani va kishining unga tayyor turishi uqtiriladi. Komil inson o'lim muqarrar ekanligini biladi va shu ong bilan dunyoviy hayotini yashaydi. Oxiratga ishonish insonlarni yomonlikdan uzoqlashtiradi, yaxshilikka chorlaydi. Dunyo boyligi va mavqelari vaqtinchalikdir. Inson bu o'tkinchi istaklarga berilmasdan o'zining ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishi

kerak. O'lim - bu inson o'z harakatlari uchun javob berishi kerak bo'lgan daqiqadir. Inson o'limni anglagan holda yashashi va keyingi hayotga tayyor turishi kerak. Chunki hayotta hamma narsa singari nafas olishning chegarasi bor:

<i>Qamuğ nengkä vaqt ol küni belgülig Nāfäs tîn toqırqa sanī belgülig (50b)</i>	Har bir narsaning ma'lum bir vaqti, kuni bor. Nafas olib berishning ham soni belgilangan.
---	---

g) mehnatsevarlik va mahsuldorlik

Asarda mehnatkash inson jamiyatda hurmatga sazovor bo'lishi, bemalol ro'zg'orini tebratishi ta'kidlangan. Dangasalik shaxsni ham, jamiyatni ham orqaga suruvchi asosiy to'siq sifatida qaraladi. Inson mehnat qilishi kerak, aks holda u boshqalarga qaram bo'lib qoladi.

Komillik yo'lidagi to'siqlar

Yusuf Xos Hojib komil inson bo'lish yo'lida kerakli bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatib o'tish bilan bir qatorda bu yo'lida duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar haqida ham to'xtalib o'tadi. To'siqlar haqida aytar ekan bunday g'ovlarni qanday oshib o'tish kerakligi, oshib o'tishda qaysi xususiyatlar asqotishini ham eslatib o'tadi. Quyida komillik yo'lida Yusuf Xos Hojib ko'rsatgan to'siqlar berilmoqda:

a) jaholat, bilimsizlik

Shoirlar ko'ra jaholat insonni to'g'ri yo'ldan chiqaradigan eng katta to'siqdir. Nodon odamni zulmatdagi odamga o'xshatadi. Nodon odam xato qiladi, noto'g'ri qarorlar chiqaradi va o'ziga ham, jamiyatga ham zarar keltiradi. Ilm insonni munavvar qiluvchi nur sifatida ko'riladi, jaholat esa bu nurning yo'qligidir. Bu to'siqqa yo'liqmaslik uchun inson doimo bilimini oshirib, o'zini takomillashtirib borishi, aqlini ishga solish va uzluksiz o'rganishga intilishi kerak. Chunki ilm insonlarga ham dunyoviy, ham dunyo saodatiga erishish imkonini beradi:

<i>Biligsiz qarağu turur belgülig, Ey közsüz qarağu bilig al ülüg (17a)</i>	Nodon ko'rga o'xshaydi, To'g'ri yo'lni bilmaydi, doim qoqiladi
---	---

b) ochko'zlik va hirs

Ochko'zlik va hirs illatlari shuhratparastlik singari odamni to'g'ri yo'ldan adashtiradi. Bu illatlar odamlarni adolatsizlik va axloqsizlikka yetaklaydi. Ochko'z odam har doim ko'proq narsani xohlaydi va bu uni to'yib bo'lmaydigan qiladi. Hirs esa kishini boshqalarning huquqlarini buzishga va nohaqlik qilishga undaydi. Boylikka, mavqega, hokimiyatga haddan tashqari hirs insonni baxtsiz qiladi. Bu illatning yechim shundaki, inson har narsada qanoatli bo'lishi va mo'tadil ish tutishi kerak. Haddan tashqarilikdan saqlanish insonning dunyoda ham, oxiratda ham baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

<i>Kişig qul qılığlı bu suqluq turur Ketärdim bu suqluq közüm toq turur (171a)</i>	Kishini qul qiluvchi bu ochko'zlikdir. Ochko'zlikdan voz kechdim, endi ko'zim to'q bo'ldi.
--	--

d) kibr va manmanlik

Takabburlik insonni kamtarlikdan uzoqlashtiradi va uni jamiyatda nomaqbul shaxsga aylantiradi. Takabbur odam o'zini boshqalardan ustun deb biladi va bu uning fazilatlarini yo'qotishiga olib keladi. Takabburlik insonning o'zi bilan ham, atrof-muhit bilan ham munosabatlariga putur yetkazadi. Bunday illatga chalinmaslik uchun kishi kamtar bo'lishi va doim boshqalarni o'zi bilan teng ko'rishi kerak. Kamtarlik insonga jamiyatda hurmatli mavqeni beradi.

*Küwâz kür keräksiz ne köñli
uluğ
Küwâzlik azitur könilik yoluğ
(81b)*

Kibr, mag'rurlik o'zini boshlardan ulug' ko'rish keraksizdir. Kibr insonni to'g'ri yo'ldan chiqaradi.

e) g'azab va sabrsizlik

G'azab kishini chalg'itadi va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Sabrsizlik odamni shoshqaloqlik bilan harakat qilishga undaydi. G'azablangan odam nazoratni yo'qotadi va xato qiladi, sabrsiz odam to'g'ri qaror qabul qila olmaydi va yanglishadi. Bu illatning yechimi Yusuf Xos Hojibga ko'ra shuki, inson g'azabini jilovlab, sabrli bo'lishi kerak. Sabr-toqat insonga to'g'ri qaror qabul qilish va xatolardan uzoq turish imkonini beradi.

*Buşi bolsa yalñuq biligsiz
bolur,
Qali öwke kelsä uquşsuz
qilur (19a)*

Inson g'azabli bo'lsa nodon bo'ladi. Jahl chiqqanda aql ketadi.

*Ewäk qurğu qılqı qılınçı
buşi,
Biligsizkä belgü bolur bu işi
(77b)*

Shoshqaloqlik, shilqimlik va qilig'i jahldor bo'lish – bular nodonlik belgilaridir.

f) dunyoviy havaslarga berilish

Dunyo boyligi va mavqei insonni oxiratni unutib, faqat bu dunyo uchun mehnat qilishiga olib kelishi mumkin. Dunyoviy nafslarga, orzu-havaslarga berilib ketgan odamda ma'naviy qadriyatlar zaiflashadi va u keyingi hayotini e'tiborsiz qoldiradi. Bu holat insonni dunyoda ham, oxiratda ham baxtsiz bo'lishiga sabab bo'ladi. Buning yechimi shundaki, inson o'z ma'naviy qadriyatlarini dunyoviy nafslarga berilmasdan asrashi kerak. O'limni anglab yashash insonni dunyoviy nafslardan uzoqlashtiradi.

*Havā ārzu boyni sīmağınça
öz,
Könilik yolına kirümäs et öz
(174a)*

Kishi o'z orzu-havaslarining bo'ynini sindirmaguncha to'g'rilik yo'lga kira olmaydi.

*Havā bas uquş birlä näfs
boyni si,
Bu ol er nişāni uquş belgüsi
(221b)*

Orzu-havasni qo'lga ol, nafs bo'ynini aql bilan sindir, bu insoniylik nishoni va aqlning belgisidir.

g) yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik

Yolg'on gapirish va ikkiyuzlamachi bo'lish kishiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Ishonchli odam jamiyatda hurmatga sazovor bo'lsa, yolg'onchi va ikkiyuzlamachi yolg'iz qoladi. To'g'riso'zlik, halollik kishiga jamiyatda ishonch qozondiradi va komillikka erishish imkonini beradi.

Kishidā yawuzraqi yalğan bolur,

Yawuzda yawuz va 'da qiyğan bolur (183b)

Kishilarning eng yomoni yolg'onchi kishidir. Yomondan ham yomoni esa o'z so'zidan qaytgan kishidir.

“Qutadg'u bilig”da komil inson bo'lib yetishish yo'lidagi to'siqlar insonning ham shaxsiy, ham ijtimoiy hayotini qiyinlashtiradigan unsurlardir. Bu to'siqlar jaholat, ochko'zlik, takabburlik, g'azab, dunyoviy nafs va havoga berilish, yomon xulqli do'stlar orttirish kabi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu to'siqlarni yengish uchun Yusuf Xos Hojib ilm, aql, adolat, fazilat, qanoat egasi bo'lib, o'limdan xabardor bo'lish kabi qadriyatlarga urg'u beradi. Komil inson bu to'siqlarni yengib o'tib, ham dunyoviy, ham oxirat saodatiga erishadi.

O'gitlar

“Qutadg'u bilig” o'ziga xos o'g'itlardan iborat bo'lgan pandnoma asardir. Yusuf Xos Hojib komil inson bo'lishni xohlovchilarga quyidagi o'gitlarni beradi:

a) *bilim va aql bilan ish tuting.* Bilim va aql insonning eng katta yo'lboshchisidir. Inson doimo o'zini takomillashtirib, bilimini oshirib borishi kerak. Aql insonlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi, xatolardan saqlaydi.

b) *har doim adolatga rioya qiling.* Adolat ham shaxsiy, ham ijtimoiy hayotda muvozanatni saqlash uchun zarur. Inson har qanday vaziyatda adolatli harakat qilishi, adolatsizlikka qarshi turishi kerak.

d) *yaxshilik qiling va go'zal axloq egasi bo'ling.* Yaxshi xulq-atvor insonni jamiyatda hurmatli mavqega olib keladi. Saxovat, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi fazilatlar inson xarakterini mustahkamlaydi.

e) *qanoatkor bo'ling va me'yordan chetga chiqmang.* Qanoat insonga dunyo havaslariga berilmasdan baxtli hayot kechirish imkonini beradi. Mo'tadillik hamma narsada me'yorda bo'lishni anglatadi.

f) *o'limni unutmagan holda yashang:* O'lim - bu inson o'z harakatlari uchun javob beradigan ondir. Inson o'limni anglagan holda yashashi va keyingi hayotga tayyorlanib borishi kerak.

g) *dunyoviy istaklar tuzog'iga tushmasdan yashang.* Dunyo boyligi va mavqei vaqtinchalikdir. Inson o'zining ma'naviy qadriyatlarini bu istaklarga berilmasdan asrab-avaylashi kerak.

h) *tilni asrang, chiroyli so'z ayting.* To'g'ri va chiroyli so'z aytish insonning qadrini oshiradi. Keraksiz suhbatlardan qochish va so'zlarni o'lchab gapirish, tilni asrash har bir kishi uchun kerak.

Xulosa

“Qutadgu bilig”da komil inson *ilm, aql, adolat, sabr, rostgo'ylik, ezgulik* kabi xislatlar bilan qurollangan insondir. Yusuf Xos Hojib inson dunyo va oxirat saodatiga erishish uchun mana shunday fazilatlarni egallashi kerakligini ta'kidlaydi.

Biroq, bu fazilatlarga erishish uchun *jaholat*, *g'azab*, *takabburlik*, *hirs* va *yolg'ondan* uzoq turish kerak. Komil inson bo'lish uchun ilm o'rganish, sabr qilish, adolatli bo'lish, chiroyli gapirish va yaxshilik qilish ham kerak.

Komil inson o'zining ham, jamiyatning ham farovonligini ta'minlashga intiladi. Yusuf Xos Hojib asarida komil inson bo'lish yo'lidagi to'siqlarni batafsil yoritib beradi va bu to'siqlarni yengish bo'yicha o'z o'g'itlarini beradi. Asar nomida aytilganidek insonning dunyo va oxirat saodatini ta'minlovchi qo'llanma bo'lib, bugungi kunda ham amalda bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan "Qutadg'u bilig"ni ko'pincha ta'kidlanganidek siyosiy asar emas, balki har bir kishi uchun axloqiy va hikmatli qo'llanma sifatida ham ko'rish kerak.

Adabiyotlar

1. Hakan Poyraz. "Ahlaklı Olmanın Gerekçesi Nedir?". 2. *Siyasette ve Yönetimde Etik Sempozyumu Bildiriler Kitabı*, 15-16 Kasım 2005 Sakarya.
2. Nusretin Yılmaz. "Türlere Özgü İlk Kaynaklarda "İnsan" Görüşünün Temelleri". *A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, 25, 2004, 127-144.
3. Nejdett Durak. "İslam Düşüncesinde Etik Bir İdeal Olarak İnsan-ı Kâmil Anlayışı". *Uluslararası İnsan Bilimleri Dergisi*, 7/2, 2010, 105-124.
4. Mehmet Akgün. "Kutadgu Bilig'te İnsan ve Kamil İnsan". *Pamukkale Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi*, 3, 1-11.
5. Eliphanov M. "Yusuf Balasagun'un 'Kutadgu Bilig' Mesnevisinde Kişilik ve Kemale Erme Meselesi". *Bilig*, 2, 1996, 147-148.
6. Funda Toprak. "İnsan-ı Kâmil'e Bakışlarıyla Yusuf Has Hacip ve Hoca Ahmed Yesevî". *Bilig*, 80, 95-122.
7. Yusuf Has Hacib. *Kutadgu Bilig. Tıpkıbasım*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2018.